

**RAQAMLI QAROQCHILIKKA QARSHI KURASHDA KIBER
HUQUQNING YONDASHUVI****Asliddin Ochilov**

*Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 2-bosqich talabasi
ochilovasliddin27@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda raqamli qaroqchilikka qarshi kurashish bo'yicha kiber huquq sohasidagi huquqiy asoslar, ijro mexanizmlari va xalqaro hamkorlik harakatlari o'rganilib, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berib o'tiladi. Mavjud kiber huquq chora va normalarining samaradorligini baholash va soha olimlarining mutaxassis sifatidagi fikrlarini eshitish, ularning adabiyotlariga murojaat qilish hamda mavzu bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni tahlil etish orqali ushbu ilmiy ishda O'zbekistonda va undan tashqarida raqamli qaroqchilikka qarshi kurash va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo'yicha davom etayotgan muhokamalarni yoritib o'tishga harakat qilinadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli qaroqchilik, kiber huquq, kiber makon, intellektual mulk huquqi, peer-to-peer ulashish texnologiyasi, kontrafakt, xalqaro tajriba, TRIPS, DMCA, litsenziya, kiberxavfsizlik, striming, dasturiy ta'minot.*

Kirish

XXI asrda zamon shiddat bilan rivojlanib, elektrokommunikativ tarmoqlar va ular bilan ishlovchi texnologiyalarga talab oshib borar ekan, ushbu texnologik poyganing girdobiga kundan-kunga yanada ko'proq odam qo'shilib boraveradi, bu narsa ayniqsa bir voqea-hodisa, obyekt yoki subyekt haqidagi muqobil axborot turi va manbasining yashin tezligida o'sishiga va axborot turlarining bir shakldan ikkinchi shaklga kirishi orqali dunyoning u burchdagidan boshqa burchiga qiyinchiliksiz yetib borishini ta'minlaydi. Mana shunday pallada insonlarning shaxsiy mulki hisoblangan ko'plab axborot manbalarini, xususan, mualliflik va



turdosh huquqlar bilan muhofaza qilinadigan intellektual mulk natijalarini kiber makonda ham tegishli himoya qilishga zarurat tug'iladi. Ayni shu axborot xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan harakatlardan biri shubhasiz raqamli qaroqchilik hisoblanadi. Umumiy ma'noda, qaroqchilik (dengiz qaroqchiligi)— ochiq dengizda savdo va fuqaro kemalarini xususiy yoki davlati kemalari tomonidan g'ayriqonuniy ravishda egallash, talontoroj qilish yoki cho'ktirish sifatida anglashiladi.[1] Ammo kiber huquqda ushbu termin biroz boshqacha ma'noni kasb etgan bo'lishiga qaramay, ishlash mexanizmi va motivi jihatdan bir talay o'xshash jihatlarga egadir. Raqamli qaroqchilik - dasturiy ta'minot, musiqa, filmlar, elektron kitoblar va o'yinlar kabi mualliflik huquqi bilan himoyalangan raqamli kontentni ruxsatsiz ko'paytirish, tarqatish yoki foydalanishni anglatadi.[2] Onlayn ya'ni kiber qaroqchilik o'zining iqtisodiy salbiy ta'siriga ega, chunki u hukumatning daromad oqimiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va siz iste'molchining moliyaviy yo'qotishingizga olib keladi. U yana shu bilan birga shaxsga doir ma'lumotlarni o'g'irlash va bolalarni turli nomaqbul kontentga duchor qilish kabi xavfsizlik muammolarini yaratadi.

Shu sababli ham raqamli qaroqchilik yoki kiber qaroqchilik deb ataladigan ushbu tushuncha fishing, karding, SMS-fishing, Internet-fishing, vishing, skimming, shiming(scheming), onlayn firibgarlik, malware, noqonuniy kontent-tarkib, refayling kabi kiber huquqbuzarliklar qatorida kiber jinoyatlar tarkibiga kiritiladi.[3] Raqamli qaroqchilikning haqiqiy iqtisodiy salmog'ini his etish uchun statistikaga murojaat qilamiz: birgina onlayn videolar qaroqchiligi tufayli har yili AQSH iqtisodiga \$29 va \$71 milliard atrofida zarar yetadi. Jahon kinochilik sanoatiga raqamli qaroqchilik ortidan keladigan moddiy ziyon miqdori yiliga 40-97 milliard AQSH dollarini tashkil etadi.[4] Raqamli qaroqchilik tug'dirayotgan murakkab muammolarni hal qilishda kiber huquq qaroqchilikka qarshi samarali kurashish uchun mustahkam qonunchilik bazasi, ijro etish mexanizmi va xalqaro hamkorlikni ta'minlash orqali hal qiluvchi rol o'ynaydi.[5] Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) Mualliflik huquqi shartnomasi, 1996 (WCT) va Jahon savdo tashkilotining (JST) Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitim,



1994 (TRIPS) normalari va tamoyillari kabi xalqaro shartnomalar mualliflik huquqini himoya qilish va qo'llash bo'yicha global standartlarni belgilab, qaroqchilikka qarshi kurashda mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi.

Metodologiya

Dunyo bo'ylab bir qator tadqiqot, monografiya, maqola va so'rovnomalarda raqamli qaroqchilikka qarshi kurashning huquqiy va me'yoriy asoslarini o'rganib chiqildi va bu jarayon davom etmoqda. Garchi, raqamli qaroqchilik bir qarashda kiber jinoyat/huquqbuzarlik shaklini kasb etsa ham, u obyekt i jihatidan intellectual mulk huquqi bilan bog'liq munosabatlarga chambarchas bog'liq, shu sababdan qator ilmiy ta dqiqotlarga ana shu ikki rakursdan qarashga jiddiy e'tibor berilgan. Misol uchun, Internet tarmog'idan foydalanuvchilarning soni oshish yo'nalishining bevosita kiber qaroqchilikning rivojlanishiga zamin yaratishini ta dqiq etar ekan Carnegie Melon universiteti professorlari M. Smith va R. Telang (2017) ning fikriga ko'ra keng tarmoqli Internetga kirishning ortishi media kompaniyalari va iqtisodiyotga turli yo'llar bilan ta'sir qilishi mumkin. Bir tomondan, keng tarmoqli Internetga kirish qaroqchilikni osonlashtirishi va media mahsulotlari savdosini kamaytirishi mumkin.

Boshqa tomondan, keng tarmoqli Internetga kirish iste'molchilarning media mahsulotlarini onlayn usulda topish, uyd an chiqmasdan ulardan bahramand bo'lish va baholash qobiliyatini oshirishi va media firmalarning o'z reklamalarini to'g'ri iste'molchilarga yo'naltirish qobiliyatini oshirishi mumkin.[6] Biroq boshqa olimlar masalan Oklahoma State University Spears School of Business assistant professori Gregory Day (2017) o'z ta dqiqotlarida mualliflik huquqi orqali himoyalangan intellektual mulk obyektlari, masalan musiqa yoki boshqa san'at asarlari muallifining yakka monopoliyasi ostida qolib ketishi ularning narxini bozorda ba'zi iste'molchilar uchun haddan tashqari qimmatlashishiga va raqobat muhitiga salbiy ta'sir mumkinligini ta'kidlarkan, bu jamiyatda ulardan arzon yoki tekinga foydalanish uchun ma'lum darajada raqamli qaroqchilikka yo'l ochib berishini aytadi: "Konsepsual nuqtai nazardan olib qaraganda, [ushbu] huquqbuzarlik odatdagi yomon ish sifatida emas, intellektual mulkning raqobatga qarshi strukturasiga nisbatan ratsional javob o'laroq qabul qilinishi



kerak. Bozorning haddan ortiq aksilraqobat muhitiga o'tib ketishining oldini olish uchun ham jamiyatga ma'lum ma'noda qaroqchilik kerak bo'lishi mumkin".[7] Andrew Masterson, London shahri politsiyasining Intellektual mulk jinoyatlari bo'yicha politsiya bo'limining jalb qilish, qaroqchilikka qarshi kurash va mualliflik huquqini buzish bo'yicha rahbarining fikricha, raqamli qaroqchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslardan nafaqat muallif va mulk huquqi egalarining o'zi balki uzoq istiqbolda oddiy shaxslar va iste'molchilar ham yutqazadi. Chunki texnologik savodxonligi uncha yuqori bo'lmagan odamlar tekinga kino ko'rish yoki kitob o'qish uchun o'sha mashhur noqonuniy qaroqchi saytlardan biriga kirishi va o'zi sezmagan holda kompyuteri xotirasidagi qimmatli ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga lang ochib qo'yishi mumkin.[8] Bu o'z navbatida boshqa turdagi kiber jinoyatlarga ham yo'l ochadi. Nathan Fiskka ko'ra, raqamli qaroqchilikning haqiqiy ta'sirini aniq hisoblash deyarli imkonsiz bo'lsa-da, dunyodagi eng yuqori daromad keltiradigan ko'ngilochar firmalarga (va hatto butun sanoatga) noqonuniy peer-to-peer (P2P) fayl almashish natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zarar tahdidi e'tiborga molikdir.[9]

Kiber qaroqchilik keng qamrovli tushuncha hisoblanib o'z ichiga bir necha turdagi huquqbuzarliklarni oladi: **Mualliflik huquqining buzilishi:** mualliflik huquqi bilan himoyalangan materialni huquq egasining ruxsatisiz nusxalash yoki tarqatish. **Qalbaki mahsulotlar(kontrafakt):** raqamli kontentning soxta nusxalarini ishlab chiqarish va sotish. **Fayl almashish:** mualliflik huquqi bilan himoyalangan fayllarni ruxsatsiz internet orqali almashish. **Noqonuniy efirga uzatish(striming):** tegishli litsenziyasiz mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontentni translyatsiya qilish. **Dasturiy ta'minot qaroqchiligi:** dasturiy ta'minot programmalarini noqonuniy ravishda nusxalash yoki tarqatish.

Interpol xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, internetdagi qaroqchilik xizmatlari turli vositalar orqali daromad olishadi, jumladan:

Reklama: Ushbu saytlar reklama beruvchilardan yoqtirishlar yoki havolalar soniga qarab to'lov olishlari mumkin.



Xayriya mablag'lari(donat): Ba'zi qaroqchilik xizmatlari foydalanuvchilardan premium kontentga kirish yoki o'z saytlarini qo'llab-quvvatlash evaziga pul berishni so'rashi mumkin.

Obuna xizmatlari: Foydalanuvchilar pirat kontentning yuqori sifatli versiyalariga kirishlari yoki obuna to'lovi evaziga "premium" kontentga kirishlari mumkin. Bunda obuna to'lovi "autentik" striming saytlarinikiga nisbatan ancha arzon bo'ladi.

Foydalanuvchi ma'lumotlarini sotish: Ba'zi qaroqchilik xizmatlari foydalanuvchi ma'lumotlarini, masalan, ko'rish tarixi yoki shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi tomon kompaniyalariga sotishi mumkin.[10]

Onlayn qaroqchilikka oid eng muhim va ilk sud ishlaridan biri 2005-yilda AQSHda sodir bo'lgan edi. ***MGM Studios, Inc. v. Grokster, Ltd.***, 545 U.S. 913 (2005) sud ishida AQSH Oliy Sudi ayblanuvchi, peer-to-peer fayl ulashish bilan shug'ullanuvchi Grokster va Streamcast kompaniyalari foydalanuvchilariga mualliflik huquqini poymol qilish imkonini berish orqali javobgarlikka tortilishi mumkinligini ko'ratgan edi.[11] Jabrlanuvchilar Metro-Goldwyn-Mayer studios rahbarligidagi 28 ta ko'ngilochar kompaniyadan iborat edi. Sudning fikri, sudya Souter ta'biri bilan aytganda "Biz qurilmani mualliflik huquqini poymol etish uchun ishlatishni rag'batlantirish maqsadida tarqatgan shaxs uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik harakatlari uchun javobgar bo'ladi, deb hisoblaymiz." Shu tariqa xalqaro muhitda intellektual mulk huquqini nafaqat bevosita buzganlik balki uni ochiq targ'ib qilib, unga ko'maklashganlik uchun ham javobgarlik vujudga kelishi mumkinligini belgilovchi yuridik pretsedent yuzaga keladi.

Natijalar

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham kiberxavfsizlikka davlat darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash choratadbirlari to'g'risida"gi pf-5099-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19-dekabrdagi



“Axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg’armasini yanada rivojlantirish va uning mablag’laridan samarali foydalanish to’g’risida”gi 356-son qarori shuningdek, 2020–2023 yillarga mo’ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va “Kiberxavfsizlik to’g’risida”gi qonunda belgilangan vazifalardan kelib chiqadigan masalalarni hal etish bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda.[12]

Raqamli qaroqchilikning o’ziga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida tafakkur mulk obyektlari to’g’risidagi ma’lumotlarni ular rasman ro’yxatdan o’tkazilgunga yoki e’lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan.[13] Bu norma ko’plab kiber qaroqchilik bilan bog’liq vaziyatlarga mos tushadi, masalan, qaysidir film yoki qo’shiq premyerasidan oldin uni to’liq yoki qisman muallif ruxsatisiz ommaga taqdim qilish orqali raqamli qaroqchilar muallif olishi mumkin bo’lgan foydaning katta qismini o’ziga yo’naltirishga harakat qiladi hamda muallifga katta zarar keltiradi. Biroq bu umumiy modda hisoblanib, aynan kompyuter texnologiyalari orqali raqamli muhitda sodir etilishi bilan bog’liq alohida band yoki holat keltirilmagan, faqatgina ushbu vositalar orqali boshqa turdagi kiber jinoyatlarni(masalan, hakkerlik, kompyuter sabotaji, fishing v.hk.) uchun Jinoyat kodeksining XX(1) bobi “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” nomi bilan ajratib o’tilgan.

Kiber qaroqchilikka kurash Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 177(1)-moddasi bilan ham tartibga solinadi:” Asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e’tiboriga yetkazish, — asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir



baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi." [14] Normaning ahamiyati shundan iboratki, raqamli qaroqchilar mualliflik huquqi obyektlarining aynan kontrafakt nusxalari (ruxsatsiz olingan skanner PDF fayllar, ko'chirib olingan MP3 musiqa yoki HD formatdagi film)ni tarqatish, takrorlash, yuklash va taqdim etish bilan shug'ullanadi. Ammo bir lekini bor bo'lib, kiber makonda nusxalangan yoki yuklangan, taqdim etilgan axborotni, uning qonuniy yoki noqonuniyligidan qat'iy nazar butunlay o'chirib tashlash iloji yo'q. Shuning uchun bordi-yu raqamli qaroqchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushlangan taqdirda ham, ular yaratgan kontrafakt mahsulotlarning o'zlariga tegishli qisminigina o'chirish mumkin, noqonuniy tarqatilgan axborotni oldindan yuklab yoki saqlab qo'ygan boshqa uchinchi shaxslarga hech qanday ta'sir o'tkazilmaydi.

Jahon tarjibasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarida shu xususda bir necha aktlar qabul qilingan Raqamli Mingyillikda Mualliflik huquqi to'g'risidagi Akt (Digital Millennium Copyright Act): Onlayn mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar uchun qonuniy himoyani ta'minlaydi va mualliflik huquqining buzilishini bartaraf etish tartib-qoidalarini, jumladan, ogohlantirib olib tashlash qoidalarini belgilaydi. 1998-yil 12-oktabrda qabul qilingan DMCA Amerika Qo'shma Shtatlari Kodeksining 17-moddasiga mualliflik huquqi doirasini kengaytirish, shu bilan birga onlayn xizmatlar provayderlarining foydalanuvchilari tomonidan mualliflik huquqini buzganliklari uchun javobgarligini cheklash maqsadida o'zgartirdi. [15] DMCAda "raqamli qaroqchilik" deb nomlangan maxsus moddalar mavjud bo'lmasa-da, uning qoidalari qaroqchilikka qarshi kurashish va intellektual mulk huquqlarini onlayn himoya qilish choralarini o'z ichiga oladi. Raqamli qaroqchilikka qaratilgan DMCA ning tegishli qismlaridan biri "Mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni cheklash to'g'risidagi Akt" (OCILLA) nomi bilan tanilgan II bob, onlayn materiallarga nisbatan javobgarlik cheklovlarini o'rnatuvchi 512-bo'lim hisoblanadi.

Qolaversa, Kompyuter firibgarligi va suiiste'moli to'g'risidagi Akt (Computer Fraud and Abuse Act) kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirishni jinoiy



javobgarlikka tortadi va hakkerlik hamda pirat(o'g'irlangan) kontentni tarqatish kabi qilmishlar uchun jazo choralarini belgilaydi. Federal qonun (17 sarlavha, Amerika Qo'shma Shtatlari Kodeksi, 501 va 506-bo'limlar) mualliflik huquqi bilan himoyalangan ovoz yozuvlarini ruxsatsiz takrorlash, tarqatish, ijaraga berish yoki raqamli uzatish uchun jiddiy fuqarolik va jinoiy jazolarni nazarda tutadi. Jinoiy jazo besh yil qamoq yoki 250 ming dollar jarimaga tortilishi mumkin. Noqonuniy ravishda tarqatilgan har bir ish (har bir qo'shiq, film, teleko'rsatuv, o'yin yoki dasturiy ta'minot dasturi) uchun fuqarolik jarimalari 750 dan 150 000 dollargacha bo'lishi mumkin. Ushbu jarimalar 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan qo'shib berilishi mumkin. Musiqa va filmlarni yuklab olishni nazorat qiluvchi ikkita asosiy tashkilot - Amerika Yozuv Industriyasi Assotsiatsiyasi (RIAA) va Amerika Kinofilmlar Uyushmasi (MPAA) mavjud. Ushbu ikki tashkilot doimiy ravishda yuklab olishlar va veb-saytlarni mualliflik huquqining buzilishi holatlarini aniqlash uchun kuzatib boradi.[16]

Muhokama

Raqamli qaroqchilikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari jamiyatning turli jabhalariga ta'sir ko'rsatib, bu ko'lam turli tarmoqlar, kontent yaratuvchilar va iste'molchilardan-da kengayib borayotir. Iqtisodiy nuqtai nazardan, raqamli qaroqchilik sanoat va intellektual mulk yaratuvchilarining daromad oqimiga putur yetkazib, katta moliyaviy yo'qotishlarga, innovatsiyalarga investitsiyalarning qisqarishiga va ish joylarining qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari, qaroqchilik bozor iqtisodiyotiga zarba beradi, adolatli raqobatni bo'g'adi va iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi. Ijtimoiy jihatdan raqamli qaroqchilik iste'molchilarning xulq-atvoriga, madaniy va ta'limga oid sifatli content kirishiga va raqamli savodxonlikka ta'sir qiladi. Iste'molchilar o'zlari bilmagan holda noqonuniy faoliyatni qo'llab-quvvatlashlari, kiberxavfsizlik bilan bog'liq turli xavflarga duchor bo'lishlari va intellektual mulk huquqlarining buzilishiga hissa qo'shishlari mumkin. Bundan tashqari, qaroqchilik ijodiylik va kreativlikka asoslangan sohalarning yaxlitligiga putur etkazadi, badiiy ifoda va yaratuvchanlikni xavf ostiga qo'yadi va madaniy xilma-xillikni kamaytiradi. AQSHda qaroqchilikka oid qat'iy qonunlar va qattiq jazolar qo'llanilishiga qaramay, global internet qaroqchiligi tez sur'atlar bilan o'sib



bormoqda. Uchta asosiy mintaqada - Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida - qaroqchilik uchun internet kabellari quvvatining 23,8 foizi ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu uchta mintaqada 178,7 million individual internet foydalanuvchilari raqamli qaroqchilik uchun BitTorrent-ga murojaat qilishgan. BSA tashkiloti 33 mamlakatdan 15 000 dan ortiq iste'molchilarni so'rov o'tkazdi va to'g'ridan-to'g'ri savol berdi: "Siz pirat dasturiy ta'minot yoki to'liq litsenziyalanmagan dasturiy ta'minotni qanchalik tez-tez sotib olasiz?" Ularning dasturiy ta'minotning qaroqchilik statistikasi natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 57 foizi dasturiy ta'minotni o'g'irlangan saytlardan yuklab olinganliklarini tan olishgan, ammo ulardan hech biri noqonuniy yuklab olish uchun ushlanmagan.

Dasturiy ta'minot qaroqchiligi bo'yicha statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'ylab dasturiy ta'minot dasturlarining har beshtasi uchun pul to'lanmagan. Afsuski, dasturiy ta'minot sanoatida aytilmagan qoida mavjud: dasturiy mahsulotingiz qanchalik qimmat va ahamiyatli bo'lsa, odamlarda mahsulotingizning pirat versiyalarini yuklab olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Zararli dasturiy ta'minot hujumini aniqlash uchun o'rtacha 243 kun ketadi, 2,4 million dollar turadi va tuzatish uchun 50 kun ketadi. Tashkilotlar litsenziyasiz dasturiy mahsulotni olish yoki o'rnatishda zararli dasturlarga duch kelish ehtimoli har uchda holatdan birga teng. [17]

2004 yilda raqamli qaroqchilarning yarmidan ko'pi o'smir o'g'il bolalar yoki yigitlar edi, ammo 2018 yilga kelib bu stereotip yo'qoldi. Ushbu qaroqchilik statistikasiga ko'ra, Buyuk Britaniyadagi qaroqchilarning 43 foizini ayollar, 36 foizini esa 35 yoshdan oshganlar tashkil etadi. Aytish joizki, qaroqchilik hozir shunchalik keng tarqalganki, endilikda har kim o'g'rilangan kontentga ega bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda elektron kitob o'quvchilar sonining oshishi tufayli yangi qaroqchilik bozori ham paydo bo'ldi. Hisob-kitoblarga ko'ra, birgina AQSHda 16,5 million noqonuniy kitob yuklab oluvchilar bor, ular o'z adabiyotlarini noqonuniy ravishda yuklab olib, 315 million AQSh dollari miqdorida foyda



yo'qotilishiga hissa qo'shishadi. Ko'pincha yoshlarning ermagi bo'lib qolayotgan musiqa qaroqchiligidan farqli o'laroq, kitob qaroqchiligi bilan asosan 30-44 yosh toifasidagilar shug'ullanadi, garchi noqonuniy kitob yuklab oluvchilar ulushi katta yoshdagi guruhlarda sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da.[18]

O'zbekiston qonunchiligiga takliflar

Raqamli qaroqchilikni samarali bartaraf qilish uchun O'zbekiston qonunchiligida qonunchilik asoslarini mustahkamlash, huquqni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Quyida mening bir necha takliflarim:

Birinchidan, mavjud huquqiy bazani yangi normalar vositasida mustahkamlash zarur. Raqamli qaroqchilik bilan bog'liq kiber-huquqbuzarliklar normalarini qayta ko'rib chiqish va ularni takomillashtirishga ehtiyoj mavjud chunki onlayn striming va fayl almashish platformalari kabi raqamli qaroqchilikka yo'l ochib berayotgan sohalarni tartibga solish uchun joriy qonunlarni yangilash kerak bo'lmoqda. Masalan, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, aynan kiber qaroqchilik bilan bog'liq holatlarni tartibga soluvchi maxsus norma yoki sanksiyalar ishlab chiqilmagan. Taklif shundan iboratki, Jinoyat kodeksining XX prim bobiga mualliflik va turdosh huquqlarni axborot vositalari orqali buzish bilan bog'liq norma kiritilishi va ushbu norma birinchi marotaba ma'muriy javobgarlik qo'llanilganidan so'ng kuchga kirishi belgilanishi lozim. Hamda amaldagi 149-moddaning sanksiya qismidagi jarima BHMning 100 baravarigacha miqdorda va undan ko'pga oshirilishi lozim. Bundan tashqari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177(1)-moddasiga og'irlashtiruvchi holat sifatida raqamli qaroqchilik yoki raqamli o'g'rilik tushunchasi qo'shilishi lozim hamda raqamli qaroqchilik - dasturiy ta'minot, musiqa, filmlar, elektron kitoblar va o'yinlar kabi mualliflik huquqi bilan himoyalangan raqamli kontentni ruxsatsiz ko'paytirish, tarqatish yoki foydalanish deya belgilanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qaroqchilik bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash, jinoiy javobgarlikka tortish va jazolashning aniq va mustahkam huquqiy mexanizmlarini joriy etish ham ko'zda tutilgan.



Ikkinchidan, O'zbekiston qonunchiligining intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq xalqaro shartnoma va bitimlarga muvofiqligini ta'minlash hamda raqamli qaroqchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribalarini qabul qilish kerak. Albatta bu borada ba'zi sezilarli ishlar amalga oshirilganini inkor etib bo'lmaydi. Xususan, "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 26.04.2022 yildagi PQ-221-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitim va O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasiga oid qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish tegishli mutasaddi organlar zimmasiga yuklatildi. Qolaversa, quyidagi yo'nalishlarda ham bir necha topshiriq va vazifalar belgilandi[19]:

1. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ko'magida respublikada mualliflik huquqini Internetda himoya qilish bo'yicha "WIPO Alert" onlayn platformasidan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.
2. Intellektual mulk sohasida professional yuridik yordam ko'rsatuvchi patent vakillari faoliyatini yanada jonlantirish.
3. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini tahliliy o'rganish, ularni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni tom ma'noda himoya qiluvchi tashkilotlarga aylantirish choralarini ko'rish.
4. Tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda barcha kuch va vositalarni intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olishga jalb qilish orqali sohada kuchli huquqiy himoyani ta'minlash.
5. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida litsenziyalangan dasturiy ta'minot vositalaridan foydalanish istiqbollari ilg'or xorijiy tajriba asosida tahliliy o'rganish.

Uchinchidan raqamli qaroqchilikka qarshi texnologiyalar va vositalarga sarmoya kiritish: raqamli huquqlarni boshqarish (DRM) tizimlari, kontentni identifikatsiyalash algoritmlari va qaroqchilikni nazorat qilish vositalari kabi qaroqchilikka qarshi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun resurslar



bilan ta'minlash kerak. Ushbu texnologiyalar qaroqchilik faoliyatini yanada samarali aniqlash va kamaytirishga yordam beradi. Raqamli qaroqchilikka oid huquqbuzarliklarni tergov qilish va ta'qib qilishda ularning imkoniyatlarini oshirish uchun huquqni muhofaza qilish organlarini tegishli o'quv dasturlari va resurslari bilan ta'minlash hamda bu borada yetakchi xorijiy davlatlar bilan faol hamkorlikni olib boorish nihoyatda muhim hisoblanadi. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari, sud organlari va tegishli manfaatdor shaxslar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit va undan foydalanuvchilar soni kundan-kunga oshib borar ekan, ushbu muhitda boshqa huquqbuzarliklar singari raqamli qaroqchilikning ham turfa shakllari vujudga kelib gurkirab o'saveradi, toki davlatlar, tegishli tashkilotlar va shaxslar o'zlari tashabbusni qo'lga olib turli normative-huquqiy hujjatlar tizimi, faol huquqni muhofaza qiluvchi organlararo hamkorlik, qonun ustuvor, jazo muqarrarligini ta'minlash va eng asosiysi bularning barchasi haqida odamlarni xabardor qilish orqali ularda raqamli qaroqchilik va pirat(o'g'irlangan) raqamli mahsulotlarga nisbatan toqatsizlikni vujudga keltirmaguncha. Buning uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va soha bo'yicha ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning mos ravishda implementatsiyasini ta'minlash, rivojlangan davlatlarning o'z tajribalarini rivojlanayotgan davlatlar bilan baham ko'rishi hamda raqamli qaroqchilik qurboni bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarni to'liq kompensatsiyalash hamda to'laqonli nazoratda ushlab turish imkonsiz internet jahon tarmog'ini ortiqcha senzuralarsiz o'g'irlangan ma'lumotlar va ularning saytlarini o'chirib tashlash orqali tozalash yaqin istiqbolda zarur ahamiyat kasb etib qolaveradi. Kontent yaratuvchilar va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi turli mualliflarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun ham ushbu huquqbuzarlikka choralarni og'irlashtirish va alohida qonun bilan tartibga solish nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo e'tiboridan chetda qolmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:



1. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/q/qaroqchilik/>
2. <https://www.interpol.int/Crimes/Illicit-goods/Shop-safely/Digital-piracy>
3. Ю.Газизова. Киберпреступность в Украине. Эра цифровых технологий — эра новых преступлений. https://uz.ligazakon.ua/magazine_article/EA013606
4. <https://dataprot.net/statistics/piracy-statistics/>
5. <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/wct/>
6. Michael D. Smith, Rahul Telang. *Piracy or promotion? The impact of broadband Internet penetration on DVD sales*, <https://www.cmu.edu/entertainment-analytics/documents/impact-of-piracy-on-sales-and-creativity/piracy-or-promotion.pdf>
7. Gregory Day. *Competition and piracy*, Berkeley Technology Law Journal, <https://www.jstor.org/stable/26488655>
8. <https://www.wipo.int/podcasts/en/ip-matters/transcripts/ip-matters-07.html>
9. Fisk, Nathan (June 8, 2009). Understanding Online Piracy: The Truth about Illegal File Sharing: The Truth about Illegal File Sharing. ABC-CLIO. ISBN 978-0-313-35474-8
10. <https://www.interpol.int/Crimes/Illicit-goods/Shop-safely/Digital-piracy>
11. <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/545/913/>
12. Нарзиев Шахзодбек Зойирович, Жолдасов Асилбек Ауезимбет улы (2021). Ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни таъминлаш ва жинойтчиликка қарши курашиш усуллари. <https://zenodo.org/records/10539177/files/ARIMS%200301.pdf?download=1>
13. <https://lex.uz/acts/-97664>
14. <https://lex.uz/docs/-111453>
15. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/PLAW-105publ304/pdf/PLAW-105publ304.pdf>



16. <https://www.snc.edu/judicialaffairs/computingpolicies.html>
17. <https://dataprot.net/statistics/piracy-statistics/>
18. <https://www.statista.com/topics/3493/media-piracy/#topicOverview>
19. <https://lex.uz/uz/docs/-5987120>